



UO'K: 37.013.

Marxabo XAKIMOVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail:marxabo@mail.ru.

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

TALABALARDA MA'NAVY QADRIYATLARNI TA'LIM OLIJH JARAYONIDA TEXNOLOGIYALAR BILAN RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarda milliy qadriyatlarni ta'lim olish jarayonida texnologiyalar bilan rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Shuningdek, ta'limning asosiy vazifalari va dolzarbligi ham milliy qadriyatlarni yoshlar ongida singdirish ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, oliy ta'lim, milliy tarbiya, zamonaviy kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy o'qitish vositalari, o'quv jarayoni.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ С ТЕХНОЛОГИЯМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье раскрываются особенности формирования национальных ценностей у студентов вузов с применением технологий. Потому что основные задачи и актуальность образования – это привить национальные ценности в сознание молодежи.

Ключевые слова: Духовные ценности, современное образование, современные технологии, инновации, высшее образование, национальное образование, современная профессиональная подготовка, современные средства обучения, учебный процесс.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES IN STUDENTS WITH TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article reveals the specific features of developing national values in students in higher education institutions with technologies. Because the main tasks and relevance of education is to inculcate national values in the minds of young people.

Key words: Spiritual values, modern education, modern technologies, innovations, higher education, national education, modern professional training, modern teaching tools. educational process.

Kirish. XXI asr globallashuvning kirib kelishi bilan izohlanadigan asr hisoblanadi. Bu asrda global miqyosda misli ko'rilmagan iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, mafkuraviy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflangan muhim o'zgarishlar davri bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu globallashuv davri insoniyatni shaxsning mohiyatini qayta ko'rib chiqishga undadi, shaxslarning ma'naviy va ichki dunyosiga urg'u berdi va insonparvarlik jamiyatlar taraqqiyoti uchun asosiy qadriyat sifatida ahamiyatini kuchaytirdi.

Globalashuv natijasida yuzaga kelgan global-siljishlarni hisobga olgan holda, ijtimoiy fanlar milliy qadriyatlar omilini qayta baholashni amalga oshirdi va uning sotsiologiya, pedagogika psixologiya, ijtimoiy tadqiqotlar, tarix, falsafa, ekologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, etnografiya va boshqa fanlar bo'yicha oqibatlarini o'rgandi. Tadqiqotchilar qadriyatlarning ichki mohiyatini o'rganib chiqdilar, ularning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi va ahamiyatini o'rgandilar. Qadriyatlar to'g'risidagifan - aksiologiya (aksio - qadriyat, logosfan, ta'limot ma'nosini anglatadi) falsafaning shu masalani o'rganadigan va u bilan shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davrida bu to'g'rida nihoyatda kam ma'lumotlar bor edi. Istiqlof tufayli qadriyatlar tug'risidagi qarashlarimiz shitob bilan o'zgaradi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng O'zbekistonda qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, uning turli qirralari olim va

mutaxassislar tomonidan tahlil etila boshladi. Qadriyatlar falsafasi – aksiologiyaning ko'pdan-ko'p mavzulari mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlarida o'ziga xos o'rin tutmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha - Aksiologiya (aksio - qadriyat, logos - ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Arastu va Hegellar katta e'tibor bergan bu mavzuning G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz.

Ammo ushbu mavzu ko'hna va navqiron Sharq xalqlari, hususan O'zbekiston xalqi uchun begona emas! Uning eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Nomlari sivilizatsiyamiz tarixiga abadiy bitilgan Xorazmiy, Forobiy, al-Buhoriy, at-Termiziy, Beruniy, ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniy kabi mutafakkirlar ijodida ham bu mavzuning izlari bor, teran qirralari ochilgan. Gap ana shu

izlarni izlab topishda, ularni unutmashlikda, sayqallab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan holisona talqin qilishdadir.

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi "Avesto" Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy G'oyalari yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom hukmron dinga aylangan edi. E'tirof etish kerakki, Qur'on va Hadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Sivilizasiyamiz qadriyatlari va xalqimizga hos qadrlash me'yorlari musulmon Sharqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham nihoyatda katta aks ta'sir ko'rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalimiz o'z navbatida butun jahon, Sharq madaniyatiga G'oyat katta hissa qo'shganlar. Bunday fikrni Abu Hanifa, al - Buhoriy, at - Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari to'g'risida ham aytish joiz. Ularning har biri o'z zamonasida islomni sivilizasiyamizning yuksak madaniyati nuqtai nazaridan targ'ib va tashviq etdilar, islom falsafasini yuksaklikka ko'tardilar, mazkur dinning butun jahonda katta mavqega ega bo'lishida muhim faoliyat ko'rsatdilar. Bu esa ushbu zotlarningnomlarini islom dini jahon sahnasida qancha tursa, shunga qadar boqiy ayladi. Ularning islom falsafasi va ilohiyotiga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ko'rsatgan nihoyatda katta ta'siri to'g'risida mahsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Afsuski, manbalar etarli bo'lishiga qaramasdan, yurtimiz sivilizasiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha kam, bu to'g'rida keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruriyati bayon etib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrning o'rtalariga kelib, amirlik va xonliklarga bo'linganligiga qaramasdan, mustaqil yashagan Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari halqimiz orasiga zo'rlik bilan singdirila boshlandi. XIX asrning ohirlari va XX asr boshlarida yurtimizda "jadidlar" oqimi vujudga keldi. M. Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa jadidlar merosiga diqqat qilinsa, o'sha davrda yurtimizda ma'naviy tushunchalarning ko'lami qanchalik keng bo'lganligini, falsafiy tilning naqadar boyligini, uning adabiyot bilan qanchalik uyg'unligini yaqqol ko'rish mumkin. Ularning asarlarida gohida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan qadriyatlar, tushunchalarga duch kelamiz. Jadidlarning merosi xalqimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Tarbiyaning asosiy o'chogi oila hisoblanadi. Oilada har birimiz farzand tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lishimiz lozim. Farzandlarimizni ma'naviy, milliy qadriyatlar, an'analar orqali tarbiyalasak jamiyatga nafi tegadigan farzandlar bo'lib ulg'ayadi. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – bu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, farzandalarimizni komil inson qilib voyaga etkazib,

tarbiyashdir. Albatta ushbu g'oyani amalga oshirishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohani ham dolzarb vazifa qilib belgilangan. Yosh avlodni o'qitish, kelajakda barkamol inson mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash kabi murakkab masalalar o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligiga va madaniyatiga bog'liq.

Darhaqiqat, bugungi kunda qadriyatlarni tiklash, ularni ilm - fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq g'oyasining tamoyillarini talabalar qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lish milliy qadriyat sohasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston xalqi o'zining qadimiy, boy madaniyati, urf - odatlari, udumlari, marosimlari, diniy va dunyoviy an'analari, qadriyatlariga ega. O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan so'ng, qadriyatlar masalasi mustaqillik ma'naviyati, milliy o'zlikni anglash, inson qadri, qadriyatning tarixiy asoslari va mazmuni kabilar o'rganilib tahlil qilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov barkamol avlod tarbiyasi masalasining davlat siyosati darajasidagi ahamiyati borasidan shunday deydi: "Biz mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasini eng ustivor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardik" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning fikriga ko'ra, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, deydi yig'ilishda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 28 - iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ - 3160-sonli Qarorining qabul qilinishi munosabati bilan keyingi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda ma'naviy - qadriyatlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi [2].

Yangi O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning, milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosligini his qilgan holda Respublikamizda milliy qadriyatlarni faollashtirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Bular: Eng oliy qariyat va ne'mat hisoblanmish tinchlik va mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashdir. O'zbek xalqi ham barcha millatlar orasida o'ziga xos va mos bilimlar boyligi, ma'nolar majmuini to'plab, asrab, rivojlantirib kelmoqda. Milliy ma'naviy qadriyatlari uzviy rivojlanib keldi. Biroq uzoq yillar davom etgan tutqunlik milliy ma'naviyatimiz asosi va uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy, milliy, ma'naviy rivojlanish sinfiylik natijasida edi. Millatni o'z ajdodlaridan ma'naviy uzoqlashtirish siyosati amalga oshirildi. Shu sababli mustaqillikning birinchi yillardan boshlab milliy ma'naviy qadriyatni – tiklash, to'ldirish va boyitish davlat siyosatiga aylandi. Chunki, har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z aql - farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirish millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan

e'tiqod va qadr hissini boyitadi. Bu esa ibtido davridagi hukmron mafkuraga zid edi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda talaba - yoshlarda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi milliy istiqloq g'oyasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki, eng qadrli qadriyatlardan biri sanalamish ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oya ekanligini har bir talaba chuqur his etishi va uni mustahkamlashda faol ishtirok etishni ta'minlash oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning eng asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Qadriyat – inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha;

“Qadriyatshunoslik (aksiologiya)”ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida qadr asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadriyat turli sohalarida xilma-xil ma'noda qo'llanadi. Qadriyat iborasining kundalik hayotdagi ma'nosi kishilar o'rtasidagi muloqotda, Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, subyektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga xizmat qilishi ta'kidlanganda, asosan, ularning foydasi, qimmatini nazarda tutiladi. Haqiqatan ham, buyumlarning iqtisodiy qimmatini kishilar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ammo, buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning ma'naviy jihati ochilmaydi. Qadriyat buyum yoki narsaning iqtisodiy qiymatini ifodalaydigan tushunchalardan farq qiladi. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bog'langan obyekt o'rtasida farq bor, deb qaraladi. Dunyoda qadrlanadigan odamlar, narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to'g'ridan-to'g'ri ism, atama yoki bevosita nom bo'la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatni ma'naviy-falsafiy tushunish uning kundalik hayotidagi ma'nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o'zi bog'liq bo'lgan obyektidan farqlash (aslo ajratish emas) bilan birga, uni obyektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklilik) bilan aynanlashtirmaslik imkonini beradi. Shunday qilib, qadriyat biror tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli - tuman shakllari, ko'rinishlari,

narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqaning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir

Xulosa. Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Qadriyatlarining asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e'tirof etgan yagona nuqtai nazar yo'q. Qadriyatlarini moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Mustaqillikkacha qadriyatlar mavzusi keng o'rganilmas edi. Istiqloq davrida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda, qadriyatlar to'g'risidagi fan - qadriyatshunoslik respublikamizdagi ijtimoiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, bu yo'nalishda tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda, ko'plab asarlar nashretilib kelinmoqda.

Texnologiyalar bilan ta'lim jarayonida talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish bir qator o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. Texnologiya ta'limda ko'plab afzalliklarni taqdim etishi bilan birga, talabalarining axloqiy rivojlanishini samarali shakllantirish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlari quydagilardan iborat:

1. Texnologiyadan keng foydalanish bilan talabalarga mas'uliyatli raqamli fuqarolik haqida ma'lumot berish juda muhimdir

2. Texnologiyani ta'limga kiritish talabalardan undan foydalanishning axloqiy oqibatlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi

3. Texnologiyaning keng tarqalishi ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishga tanqidiy yondashishni talab qiladi

4. Texnologiyadan keng foydalanish ekrandan ko'p vaqt sarflanishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'quvchilarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

5. Texnologiya kiber bulling va boshqa onlayn xavfsizlik muammolari uchun eshiklarni ochadi

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar bilan ta'lim jarayonida talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish raqamli fuqarolik, texnologiyalardan axloqiy foydalanish, media savodxonlik, ekran vaqtini boshqarish va onlayn xavfsizlikni targ'ib qilish kabi o'ziga xos xususiyatlarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu fikrlarni hisobga olgan holda, talabalar ta'limga texnologiyaning integratsiyalashuvi talabalarda kuchli axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish bilan birga borishini ta'minlashi mumkin. Demak, yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohozalarga tayangan holda aytish mumkinki, talabalarni milliy qadriyatlar orqali tarbiyalashda oila, oliy ta'lim muassasalari, jamoatchilik tashkilotlari va mahallaning o'rni muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// «Xalq so'zi» gazetasi. 1999. 8- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan Qonuni.
3. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis... ped. fan. d-ri. -T., 2007.
4. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. –T: Toshkent islom universiteti.
5. Islom ensiklopediyasi. –T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017.
6. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisilik. – T.: Istiqloq, 2009.